





F.U.Qodirova,X.Sh.Yunusova

Inklyuziv va maxsus ta'limning filologik asoslari



CHIRCHIQ 2022

UO'K: 373:159.9

KBK: 74.00

F-48

F.U. Qodirova, X.Sh. Yunusova

Inklyuziv va maxsus ta'limning filologik asoslari: – Toshkent:
«Zebo print» 2022. – 136.

Taqrizchilar:

Sh.Samarova- TVCHDPI Psixologiya kafedrası mudiri,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

U.Fayziyeva- O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va
psixologik pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta'lim
laborotoriyasi bo'limi boshlig'i p.f.n dotsent

Ushbu o'quv qo'llanmada inklyuziv ta'lim va maxsus ta'limda
ona-tilining o'rni, tilshunoslik bo'limlari, nutq madaniyati qonu-
niyatları bayon etilgan. Qo'llanma bo'lajak logopedlar, surdopeda-
goglar va oligofrenopedagoglar, defektologlar, tarbiyachilar, alohida
ehtiyojga ega bo'lgan bolalar va ularning ota-onalari bilan korreksion
va rivojlantirish ishlarida foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943-8463-6-4

Kirish

Mustaqilligimiz poydevorini mustahkamlash hamda O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirishda ta'lim tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, yoshlarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega.

Yangi jamiyat uchun mustaqil fikr yuritadigan, maqsad va vazifalarga erishishga qodir, ma'naviy – axloqiy dunyosi boy, barkamol shaxsni shakllantirish davr talabi bo'lib qoldi. Mazkur vazifa avvalo har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalashni taqozo etsa, bu holda birinchi navbatda ularning jismonan va ruhan sog'lomliklarini talab etadi. Mustaqilligimiz poydevorini mustahkamlash hamda O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirishda ta'lim tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, yoshlarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega. Zero taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, muayyan kasb-hunarga ega bo'lgan yuksak salohiyatli kishilar hal etadi. Shu o'rinda alohida qayd etish zarurki, yurtimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash voyaga yetkazish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta'lim-tarbiya islohoti haqida gapirar ekanmiz, uning mazmunini lo'nda qilib ifoda etish mumkin: bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishida¹ maktabgacha ta'lim muassasalarini qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta, o'rta

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni

maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora tadbirlari turadi.

2017-yilda amalga oshiriladigan tadbirlar tufayli O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi davlat test markazi zimmasiga aholining ijtimoiy nochor qatlamlarining sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks chora tadbirlar ishlab chiqarish topshirildi.

Davlatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O'zbekistonning rivojlanish istiqbollari haqida so'z yuritarkan, har kim o'z huquqlarini bilishi, ulardan foydalana olishi, o'z huquq va erkinliklarini bilishi uchun aholining huquqiy madaniyatini oshirish nechog'liq muhim ekanligini har doim eslatib o'tadilar.

Jumladan, Konstitutsiya ma'ruzasida bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Asosiy qonunimiz negizida yaratilgan "Harakatlar strategiyasi" bugungi kunda jonajon vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishda, innovatsion va industrial rivojlanish sari odimlashda beqiyos o'rin egallamoqda.²

Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak

²Bilimli avlod - buyuk kelajakning, tadbirkor xalq - farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi, 2018-yil 8-dekabr.